

TA'LIM JARAYONIDA VIDEODARSLAR YARATISH TEXNOLOGIYASI VA ULARNING AHAMIYATI

Murodqosimova Shodiya

Jizzax davlat pedagogika instituti talabasi

Tangirov Xurram Ergashevich

Jizzax davlat pedagogika instituti katta

o'qituvchisi

E-mail: xurramtangirov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida videodarslar yaratish texnologiyasi va ularning ahamiyati haqida keng ma'lumot keltirilgan bo'lib, undan ta'lim jarayonida foydalanish jihatlariga ham to'xtalgan. Nafaqat mamlakatimizda balki, butun dunyo ta'lim tizimida axborot texnologiyalari yordamida elektron darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar, pedagogik dasturiy vositalar, turli ta'lim resurslari, o'qitishning elektron vositalari, multimediali darsliklar yaratish va ulardan foydalanish rivojlanib bormoqda. Bular o'z navbatida ilm-fan taraqqiyotiga, ta'lim sifati va samaradorligining oshishiga katta hissa qo'shmoqda.

Kalit so'zlar: axborot kommunikatsiya texnologiyalari, dars jarayoni, multimedia vositalari, videodars, elektron ta'lim resurslari.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim tizimimizga va uning sifatini oshirishga juda katta e'tibor qaratila boshlandi. Xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ishlab chiqildi, o'n ikki yillik uzluksiz ta'lim tizimi joriy etildi. Bu tizimning mohiyati shundan iboratki, yoshlarga umumiy o'rta ta'lim berish bilan birga o'rta maxsus ta'lim ham berish, o'quvchi yoshlarni kasbga yo'naltirish va kelajak hayotga tayyorlash hisoblanadi. Ta'lim tizimi samaradorligini yanada oshirish maqsadida ta'lim muassasalari tubdan modernizatsiya qilindi. Shu jumladan, ta'lim muassasalari tubdan

rekonstruksiya qilinib, laboratoriya va lingafon xonalari, axborot resers markazlari tashkil etildi, eng zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlandi, barcha zarur moddiy va texnik ta'minot bilan ta'minlandi.

Hozirgi kunda axborot texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. XXI asr "Axborot asri", "Axborot texnologiyalari asri" hisoblanadi, shuning uchun bugungi kunda axborot texnologiyalarini puxta egallamoqlik zamon talabidir.

Respublikamizdagi maktablar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bugungi kunda kompyuter texnologiyalari va butun jahon o'rgimchak to'ri - Internetni o'quv jarayoniga tadbiiq etishni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Buning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining Farmoni va Qarorlarida, maxsus dasturlarda ko'rsatib o'tilgan.

Mamlakatimizdagi maktablar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalarining zamonaviy texnika vositalar va kompyuterlar bilan ta'minlanishi davom etayotgan bo'lsada, ulardan foydalanish sustroq olib borilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta'lim muassasalarida unumli foydalanish, uni dars jarayonlariga qo'llash, dasturchilar va undan foydalanuvchilarning imkoniyat darajalarini oshirish davr talabi hisoblanadi. Shuning uchun ham o'quv yurtlarimizda informatika va axborot texnologiyalari fanining o'qitilishiga va zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga, ularni amalda qo'llovchi pedagoglarning malakalarini oshirishga juda katta e'tibor berilayapti.

Nafaqat mamlakatimizda balki, butun dunyo ta'lim tizimida axborot texnologiyalari yordamida elektron darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar, pedagogik dasturiy vositalar, turli ta'lim resurslari, o'qitishning elektron vositalari, multimediali darsliklar yaratish va ulardan foydalanish rivojlanib bormoqda. Bular o'z navbatida ilm-fan taraqqiyotiga, ta'lim sifati va samaradorligining oshishiga katta hissa qo'shmoqda. Bunday darsliklardan keng qo'llaniladiganlaridan biri videodarsliklar hisoblanadi. Bu videodarsliklarning samaraliligi shundaki,

o'quvchilar masofadan turib, mustaqil ta'lim olishi va istalgan vaqtda videodarsliklardan foydalanishlari mumkin. Bu esa bilimlarni doimo mustahkamlab borish imkonini beradi.

Bunday videodarsliklarni qanday yaratish mumkin va qanday yaratish kerak? Videodarslikni yaratishning bir qancha usullari mavjud bo'lib, bu o'rgatilayotgan fanga bog'liq. Videodarsliklar oldindan tuzilgan reja asosida yaratilib, xatoliklar qayta ishlanadi. Shuning uchun ham ilmiylik darajasi yuqori bo'ladi.


Videodarsliklarni yaratishda avvalambor mavzu tanlanib, mavzu yuzasidan reja tuziladi. Reja asosida videodarslikni tashkil etish tartibi belgilab olinadi. Videodarslikka qo'shimcha materiallar, taqdimotlar tayyorlanadi.


Darsliklar videotasvir ko'rinishida saqlab boriladi. Videotasvir hosil qilishda real hodisalar uchun web-kamera yoki video-kamera qurilmalaridan; taqdimotlar va turli animatsion jarayonlarni tasvirga olish uchun maxsus dasturlardan foydalanishimiz mumkin. Bunday dasturlarga FastStone Capture, iSpring Suite, Bandicam, Camtasia Studio, SnagIt, CamStudio kabi ko'plab dasturlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Hozirda keng tarqalgan va optimallashtirilgan, ko'p funksiyali dastur bu **Camtasia Studio** hisoblanadi.

Camtasia Studio tarkibiy dasturlari:

- **Camtasia Studio** (bosh dastur hisoblanib, videotasvirlarni yaratish va tahrirlash uchun ishlatiladi, keyin barcha dasturlar shu dastur orqali bog'lanadi);
- **Camtasia Recorder** (videotasvir hosil qilish, bunda kompyuter monitori yoki web-kamera orqali ovozi videolar tasvirga olinadi);
- **Camtasia Theater** (bu dastur orqali bir qancha videotasvirlarni tartiblab, *.swf fayliga birlashtirishimiz va bu darslikdan web-sahifamizda ham foydalanishimiz mumkin);
- **Прои́грователь Camtasia** (videotasvirlarni ko'rish uchun kichik dastur);
- **Создать веб-меню** (videodarslikning menyu ilovasini tayyorlash dasturi);

Videodarsligimizni tayyorlash uchun dastavval **Camtasia Studio** dasturini

ishga tushirish bilan boshlaymiz. Hosil bo'lgan oynadan  tugmasini bosamiz. Shundan so'ng, **Camtasia Recorder** qism dasturi ishga tushib, tasvirga olinuvchi soha va quyidagi oyna hosil bo'ladi:



Kerakli sozlashlarni amalga oshirganimizdan so'ng **rec** (qizil tugma) bosiladi. Tasvirga olishni to'xtatib turish uchun **F9** tugmasi, yakunlash uchun **F10** tugmasini bosish kerak. Tasvirga olish yakunlangandan so'ng, hosil bo'lgan oynadan loyihamizni saqlab qo'yamiz.

Endi saqlangan loyihamizni tahrirlab chiqamiz. Buning uchun **Camtasia Studio** bosh dasturiga o'tib, **Файл** menyusidan **Импорт файлов мультимедиа...** bandi tanlanadi va saqlangan loyiha ochiladi. Loyihamizni vaqtlar shkalasiga o'tkazishda ekran o'lchami ko'rsatiladi. Ekran o'lchamini tanlashda barcha uchun mos bo'lishligini e'tiborga olish lozim. Chunki, katta o'lchamdagi tasvirning hajmi ham kattalashadi va fayllarni uzatishda muammolar uchrab turadi; kichik o'lchamda esa tasvir sifati buzilishi mumkin.

Loyihamizni qayta ishlash jarayonida bir-biriga qo'shish, xatoliklarni qirqib olish, turli matnlar va ko'rsatmalar qo'shish, ovozlarni tahrirlash, effektlar qo'llash mumkin.

Loyihani tahrirlab tayyor holga keltirganimizdan so'ng, **Файл** menyusidan **Создать видео как...** bandini tanlaymiz. Hosil bo'lgan oynadan video formati ko'rsatiladi (odatda **MP4/FLV/SWF** formatidan foydalaniladi), ko'rsatish rejimlari tanlanadi, faylga nom beriladi va saqlash joyi ko'rsatilib saqlanadi.

Videotasvirlar tayyorlangandan so'ng, ularni jamlab, tayyor holga keltirish lozim. Bunda biz darslarning menyu ilovasidan foydalanishimiz mumkin. Buning uchun **Camtasia Studio** bosh dasturidan **Сервис** menyusining **Camtasia MenuMaker** bandini tanlaymiz.

Bu qism dasturi orqali turli ko‘rinishdagi menyularni yaratishimiz mumkin. Bunday holatda videodarslarimiz menyuga gipermurojaat orqali bog‘lanadi. Hosil bo‘lgan menyu ilovasi *.exe formatida bo‘lganligi bois barcha kompyuterlarda xatoliklarsiz ishlatish imkoniyati yaratiladi.

Barcha mavzular manashu tartibda tayyorlangandan so‘ng va yuqorida keltirilgani kabi menyular orqali yaxlit holatga keltirilgach videodarslik tayyor bo‘ladi. Videodarsliklar bo‘limlar yuzasidan yoki to‘liq darslik yoki fan bo‘yicha tayyorlanishi mumkin. Shuningdek, biror dasturlarni (masalan, Word, Excel, Power Point, Photoshop, CorelDraw, Pascal, Delphi, PHP, Macromedia Dreamweaver, Flash va boshqalarga tayyorlangani kabi) o‘rgatish uchun mo‘ljallab tayyorlanishi mumkin.

Bunday videodarsliklarda o‘quvchilar soni cheklanmaydi va o‘quvchining mustaqil ta’lim olishiga, o‘rganishiga, uning bilimlari mustahkamlanishiga zamin yaratiladi. Mukammal tayyorlangan videodarsliklar o‘z o‘quvchilarini yo‘qotmaydi va aksincha, dunyoning turli mamlakatlarida tez sur‘atlar bilan tarqaladi. Bu esa o‘qituvchining o‘z fani yuzasidan yoki bilim berishi jihatdan shogirdlarining ko‘payishiga, ayniqsa masofaviy ta’lim olish orqali o‘quvchilarining ko‘payishiga sabab bo‘ladi.

Bunday videodarsliklarning sifatli bo‘lishi o‘qituvchining bilimiga, tajribasiga va axborot texnologiyalaridan foydalana olish ko‘nikmasiga bog‘liq bo‘ladi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan videodarsliklar tayyorlash usulidan barcha fan o‘qituvchilari foydalana olishlari mumkin. Buning uchun chuqur bilim talab etilmaydi. Elektron darsliklar yaratishning eng qulay usuli biz ko‘rib o‘tgan videodarsliklar hisoblanib, jamiyatni axborotlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan darslarimizni bunday videodarsliklar bilan boyitib borsak, o‘quvchilarning bilim olishiga yanada kengroq sharoit yaratgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида (*Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.04.2019 й., 06/19/5712/3034-сон*).

2. Тангиров Х.Э. Электронные средства обучения как компонент информатизации образования //Иновационные педагогические технологии. – 2014. – С. 335-337.

3. Тангиров Х.Э., Маматкулова У.Э. Использование электронных образовательных ресурсов в индивидуализации учебного процессе // «Иновационные подходы в современной науке» сб. ст. по материалам LX междунар. науч.-практ. конф. – № 24 (60). – М., Изд. «Интернаука», 2019. – С. 72-76 с.

4. Тангиров Х.Э., Саттаров А.Р., Хаитова Н.Ф. Использование электронных образовательных ресурсов при индивидуализации обучения математике // Молодой ученый. — 2020. — № 21 (311). — С. 723-726.

5. Botirovich, B.D., Ergashevich, T.K., Eshmirzayevna, M.U., Kholboyevich, A.S., Fayzullayevna, K.N., & Mukhiddinovna, A.U. (2020). The importance of teaching algorithms and programming languages in the creation of electronic education resources. *Journal of Critical Reviews*, 7(11), 365-368.

6. Tangirov Kh. E. The use of electronic educational resources for individualization in the process of teaching algebra in schools // *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. Progressive Academic Publishing, UK. 2019, Vol. 7, No. 3, - pp. 43-48.